

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **“O'ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASIDA ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING YORITILISHI**

**Zeboxon QOBILOVA**

*Filologiya fanlari doktori, professor,*

**Lochinbek AHMADALIYEV**

*University of Business and Science*

*Til va adabiyot ta'limi kafedrasи katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

[nihcol95@gmail.com](mailto:nihcol95@gmail.com)

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804442>**

**Annotatsiya:** “O'zbek adabiyoti namuna daftari” Po'latjon Qayyumiyning uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasi bo'lib, Qo'qon xonligi tarixi va Qo'qon adabiy muhiti haqida qimmatli manbalardan biridir. Shu bilan birga, ushbu tazkirada o'zbek mumtoz adabiyotining deyarli barcha davrlari hamda ularda faoliyat yuritgan professional va havaskor shoirlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Tazkirada alohida hurmat bilan tilga olingan shoirlardan biri, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Maqolada tazkiranavising Alisher Navoiy hayoti va ijodiga munosabati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** antologiya, tazkira, devon, manba, onomastika, etnografiya, tarix, adabiyot, o'lkashunoslik.

**Аннотация:** “Образец тетради узбекской литературы” является результатом многолетних научных исследований Поладжона Кайюми и является одним из ценных источников по истории Кокандского ханства и литературной среде Коканда. В то же время в данном обзоре собраны сведения практически обо всех периодах узбекской классической литературы и работавших в них профессиональных и любительских поэтах. Алишер Навои, несомненно, является одним из поэтов, упомянутых в тазкире с особым уважением. В статье анализируется отношение тазкиранависа к жизни и деятельности Алишера Навои.

**Ключевые слова:** антология, тазкира, девон, источник, ономастика, этнография, история, литература, краеведение.

**Annotation:** “Sample notebook of Uzbek literature” is the result of Polatjon Kayyumi's long-term scientific research and is one of the valuable sources about the history of the Kokand Khanate and the literary environment of Kokand. At the same time, this review contains information about almost all periods of Uzbek classic literature and professional and amateur poets who worked in them. Alisher Navoi is undoubtedly one of the poets mentioned with special respect in Tazkira. The article analyzes the attitude of tazkiranavis to Alisher Navoi's life and work.

**Keywords:** anthology, tazkira, devon, source, onomastics, ethnography, history, literature, local lore.

“O'zbek adabiyoti namuna daftari” Po'latjon domullo Qayyumi (1885-1964) tomonidan tuzilgan ilk tazkira bo'lib, Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” ta'sirida bitilgan. Po'latjon Qayyumi butun umrlik ilmiy faoliyati davomida turkiy (o'zbek) mumtoz shoirlari haqida faktlarni yig'ib borgan. Biroq sovet mafkurasi ta'siri ostida ularni qay tarzda keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etishga

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**


## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

qiynalgan. Chunki u yig'gan shoirlarning juda katta qismi "feodal klerikal saroy adabiyoti" vakillari edi. Shunday paytda 1926-yilda Sadriddin Ayniy yuqoridagi asarini e'lon qilgan. Bu jarayon Po'latjon Qayyumiya o'z maqsadini ochishga yo'l ochgan. Sadriddin Ayniy mafkura yalovbardori bo'lganligi sababli Po'latjon Qayyumiya uning asari soyasi ostida xuddi u kabi o'zbek shoirlari she'rlarini e'lon qilish, Ayniyga ergashish orqali o'zi va asarini tanqiddan omon saqlashi mumkin edi. Shundan so'ng olim o'zidagi tarqoq materiallarni tartiblashga kirishadi.

Ushbu tazkira turkiy (o'zbek) mumtoz adabiyoti vakillari to'g'risida unikal ma'lumotlarni taqdim eta olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.



Tazkirada keltirilgan turkiy (o'zbek) mumtoz shoirlari orasida alohida hurmat-e'tibor bilan tilga olingani, shubhasiz, Hazarat Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir. Tazkiranavis o'z asarining 89-93-sahifalarini ulug' shoir ijodiga bag'ishlagan bo'lib, 89-sahifa shoirning tarjimai holi va unga tazkira muallifining adabiy munosabatini o'z ichiga olgan hamda uni: "Mavlono Alisher Navoiy to'g'risida", -deb nomlagan. 90-93-sahifalarda esa shoir she'rlaridan namunalar taqdim etilgan.



"Mavlono Alisher Navoiy to'g'risida

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Ulug‘ o‘zbek shoiri Navoiy milodiy ila 1441nchi yilda 9nchi fevralda Hirot shahrida tug‘uldi. Uning oilasi hukumat idorasida xizmat etuvchi a’yonlardan edi. Otasi Xurosonning Sabzavor nomli shahrining hokimi edi. Alisher temuriylardan Husayn Boyqaro bilan boshlang‘ich mакtabda birga o‘qudi. 1449nchi yilda Xurosonning shohi Shohrux Mirzo o‘lganidan keyin shahzodalar orasinda taxt talashish boshlanib ketgach, Alisherning oilasi bu ichki, o‘zaro bo‘lmish kurashlardan qochib Iroqqa ketdi. Unda turib 1452nchi yilda Alisher Hirotga qaytib keldi va o‘qushini davom etdirdi. So‘ngra xattotlik va rassomlik, musiqa, ilmi aruz kabi fanlarni ham o‘rgandi. Navoiy she‘r yozishga juda ertaroq kirishib edi. Ul 15 yoshida shoir bo‘lub xalqga tanilgan edi. Navoiyga turkiy tilda yozganda “Navoiy”, forsiy tilda “Foniy” taxallus etmishdur. Shuning uchun ikki til egasi deb ataldi. 1456nchi yilda Xuroson shohi bo‘lmish Abulqosim Boburning xizmatiga kirishdi. Bu kishi ham shoir edi. Yosh Alisherning talantiga yaxshi baho berar edi. Abulqosim vafot etsa ham, Navoiy Mashhadda qoldi. 1464nchi yilda o‘z shahri Hirotga qaytib keldi. Bu yerda ul badaxshonlilar bilan do‘splashib edi. Biroq badaxshonlilar Abu Said Mirzoga qarshi isyon chiqardilar. Abu Said Mirzo esa buni Alisherdan gumon etib, 1466nchi yilda Alisherni Samarqand shahriga surgun qildi. Alisher bunda Ulug‘bek madrasasida turib, o‘shal zamonning mashhur olimi, mudarris mavlono Abullays Samarqandiydan ilm ola boshladi. Bunda shoirlar, cholg‘uvchilar, olimlar bilan tanishdi va do‘splashdi. 1468nchi yilda Husayn Boyqaro Xuroson shohi bo‘lub, Hirotga Alisherni chaqirdi. 1469nchi yil Sulton Husayn muhrdorlik mansabini berdi. Saroy kishilari bilan kelisha olmay, vazifasidan iste’fo berib, II yil kitoblar tasnif etish bilan shug‘ullandi. O‘z devonining tartibga soldi. Buyuk kitobi “Xamsa”ni yozib tamom etdi. Ig‘vogarlarni tuhmati ila Astrobodga surgun qilindi. 1489nchi yilda Hirotga qaytib keldi. 1501nchi yilda 3nchi yanvarda vafot etdi. Asarlari bizga qoldi”. [1.89]

Ushbu fiqradan ma’lum bo‘ladiki, tazkiravisi shoir ijodiga xolislik bilan yondashgan. Ayni paytda, ayrim munozarali o‘rinlar ham mavjud. Uning bolalik chog‘lari, oilasi, boshlang‘ich ta’limi kabi masalalardan so‘z boshlagan muallif temuriyzoda hukmdor Shohrux Mirzoning vafotini “1449nchi yil” deb beradi. Ushbu ma’lumot “Tazkirai Qayyumi”da ham aynan shunday keltirilgan.[2.2] Aslida Shohrux Mirzo 1447-yil 12-martda nevarasi Sulton Muhammad Mirzo isyonini bostirish vaqtida Ray shahrida 70 yoshida vafot etadi.[3.399] Mana shu kabi holatni Husayn Boyqaroning taxtga chiqish sanasida ham ko‘rish mumkin. Po‘latjon Qayyumi uni 1468-yilda taxtga chiqqanligini aytadi. Aslida esa mazkur temuriyzoda taxtga chiqqan vaqtি milodiy muqobili hisoblab chiqilganda 1469-yilning 24-mart sanasiga to‘g‘ri kelishi aniqlangan.[3.411] Shu bilan birga, Alisher Navoiyning

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Iroqdan Hirotga qaytishi, Abulqosim Bobur xizmatiga kirishi, Mashhaddan Hirotga qaytgani, Samarqandga ketishi, muhr dorlik lavozimiga tayinlanganligi, Astroboddan Hirotga qaytishi, shuningdek, tavallud va vafot sanalari tarixchilar tomonidan berilgan ma'lumotlar bilan to'laqonli mos keladi. Umuman olganda, tazkira yozilayotgan paytda Shohrux Mirzo va Sulton Husayn Boyqarolar faoliyati monografik tadqiq etilmaganligi, ularning faoliyati bilan bog'liq joriy yozuvdag'i asarlar nashri amalga oshirilmaganligi sababli tazkirana vis qo'lyozmalarga murojaat etgan hamda ularda berilgan hijriy vaqtning milodiy muqobilini hisoblab chiqqan. Mazkur tafovutlar mana shu sabablar yuzasidan kelib chiqqan.

Bundan tashqari, ushbu ma'lumotlarda yana bir e'tibor qaratish lozim bo'lgan o'rinn mavjudki, bu Alisher Navoiyning Abu Said Mirzo tomonidan Samarqandga surgun qilinishidir. Shoiring temuriyzoda hukmdor tomonidan surgun qilinganligi haqidagi ilk ma'lumotlar adabiyotshunoslikda V.Bartold tomonidan ilgari surilgan. V.Bartoldning fikrlari Y.Bertels tomonidan ham qabul qilingan. Shu tariqa ushbu qarash adabiyotshunoslikda keng yoyila boshlangan. Biroq ayrim adabiyotshunoslар mazkur fikrga qo'shilmaydi. Masalan, Sh.Sirojiddinov Alisher Navoiyning Samarqandga ketishini quyidagicha izohlaydi: "Bu davrda Samarqand obod diyor bo'lib, Mirzo Ulug'bek tomonidan asos solingan jahoniyl ilm-fan markazi an'analari hali so'nmagan, islomiy ilmlarning allomalari hanuz hanafiylik ta'limotini mukammal o'qitish bilan band edi" [4.41]. Adabiyotshunos olim bu o'rinda Alisher Navoiyning Samarqand borishini surgun bilan bog'liq emas, balki tahsil maqsadida borganligini aytmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da ushbu masala xususida quyidagicha fikr bildirgan: "Bilmom ne jarima bila Sulton Abu Said Mirzo Hiridin ixroj qildi. Samarqandg'a bordi. Necha yilkim Samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi. Alisherbekning mizozi nozuk bila mashhurdir... bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mizozi ekandur" [5.334]. Ushbu ma'lumotlarga e'tibor qilinsa, "أَخْرَاج" (arabcha: "chiqarish") fe'lidan foydalanilmoqda. Ushbu leksema semantikasiga kirib borilsa, "haydash", "surgun qilish" ma'nolari ham ifodalanadi. Ushbu fe'lning orttirma nisbat shaklini olganligi ham undagi ish-harakatning bajaruvchining o'z ustida emas, balki boshqa shaxs tomonidan bajartirilganligini oydinlashtiradi.

Tabiatan rostgo'y bo'lgan Mirzo Boburning aniq dalil mavjud emasligi sababli "bilmon" ("bilmadim") deyishlik bilan cheklanishi uning tayinli asosi bo'lmagan izohlarni tilga olishdan o'zini ehtiyyot qilganligidan dalolat beradi. Bir tomonidan, Bobur Mirzo Alisher Navoiyning kichik zamondoshi sifatida u bilan uchrashish ishtiyoqi bo'lgan, uni o'ziga ma'naviy ustoz deb bilgan. Ikkinci tarafdan, Abu Said

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Mirzoga nabira sanalgan. Shunga qaramay, Mirzo Bobur masalaga xolislik bilan yondashgan. Tabiatni nozikmijoz bo'lgan Alisher Navoiyning ushbu safarni o'z xohishi bilan ixtiyor etmaganligiga ishora qiladi. Lekin temuriylar tarixiga bag'ishlangan barcha asarlarda Husayn Boyqaroning Abu Said Mirzo bilan toj-u taxt kurashiga kirishgani aytildi. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning Samarqandga borishi masalasi ko'plab adabiyotlarda bu voqeа bilan bog'liq keladi.

Alisher Navoiyning Samarqandda o'tkazgan umriga to'xtalingan adabiy asarlarda ham bu holatni ko'rish mumkin. A.Qayumov ham "Alisher Navoiy" asarida Alisher Navoiyning Abu Said Mirzo tomonidan Samarqandga surgun qilinish voqeasiga to'xtaladi hamda bunga Husayn Boyqaro bilan do'stligini sabab qilib ko'rsatadi [6.46].

Ushbu o'rnlarda Abu Said Mirzoning mazkur xatti-harakatiga salbiy baho berilsa-da, aslida hukmdorlik siyosati nuqtai nazaridan qaralsa, o'zi bilan taxt talashayotgan dushmanining eng yaqin do'stiga har qanday hukmdor ham jazo qo'llashi tabiiy hol bo'lib, tarixda bunday holatlar qatl qilish darajasiga ham borganligi tez-tez kuzatiladi. Qolaversa, Abu Said Mirzo Alisher Navoiyning xalq o'rtasidagi obro'-e'tiboridan xavfsiragan bo'lishi ham mumkin. Abu Said Mirzo Alisher Navoiyning shoirlilik iste'dodini hurmat etgani holda Samarqandga jo'natadi va buni hatto surgun deb ham atamaydi. U yerda shoirga maxsus sharoit ta'minlab bergani holida Samarqand hokimi Ahmad Hojibekning shaxsan o'zi bu masalalar bilan shug'ullangani ham buni tasdiqlaydi.

B.Valixo'jayev esa, shoirning Sayyid Hasan Ardasherga yo'llagan she'riy maktubiga tayanib uning ilm talabi maqsadida yo'lga chiqqani, xususan, Xoja Ahror Valiy, Fazlulloh Abu-l-Lays Samarqandiy kabi tasavvuf namoyandalari suhbatida bo'lganligi, ulardan saboq olganligiga urg'u beradi. [7]

Ibrohim Haqqul ham ushbu masalaga atroflicha to'xtalgani holida o'z fikrlarini shunday umumlashtiradi: "Alisher Navoiyning Samarqandda bo'lishi tasodifmi, zaruratmi? Navoiy uchun zarurat edi. Samarqand uchun tasodif edi. Bu buyuk so'z san'atkorining yetishib chiqishiga zamin bo'ldi. Bu tasodif sinergetik tasodif, aniqrog'i bu tarixda bo'lib o'tgan tarixiy tasodif edi. Bu tushunchani olimlar "tasodifdagi zaruriyat" deb ataydi" [8].

Po'latjon Qayyumiylarida ham shoirning Samarqandga borishiga surgun sabab qilib ko'rsatilgan. Ayni paytda, ushbu surgunga adabiyotshunoslar va tarixchilar tomonidan turlicha sabablar keltirilganligi holida tazkiranavis bu masalaga Abu Said Mirzo va Husayn Boyqaro bilan bog'liq bo'lgan nizolarni keltirmagan holida boshqa unikal sababni vosita qiladi. Po'latjon Qayyumiyning fikrlariga ko'ra Alisher Navoiy badaxshonliklar bilan do'stlashib yurgan vaqtida ular tomonidan

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

hukmdorga qarshi isyon tashkil etilgan. Mana shu sabab shoirning Samarqandga surgun qilinishiga sabab bo‘lgan.

Badaxshon bilan bog‘liq ayrim fikr-mulohazalar boshqa manbalarda ham uchraydi. Biroq ularda ham fikrlarni taqdim etishda turlichalik, izohli o‘rinlar mavjud. Chunonchi, Y.Bertel’s “Navoiy” monografiyasida “Alisher 1464-yili Mashhaddan Hirotga qaytdi. 1466-1467-yili Badaxshonda Navoiyning do‘stlari tomonidan ko‘tarilgan qo‘zg‘olon Abu Said tomonidan bostirilgach, u qochib, Samarqandga ketdi” deya ko‘rsatadi [9.77]. Bundan anglashiladiki, boshqa bir joyda esa Navoiyning yuqoridagi e’tirofiga diqqatini qaratgan shekilli, Alisher Navoiy surgun qilinmagan, balki mazkur vaziyatni hisobga olib o‘z ixtiyori bilan ketgan. Ushbu asarda bir qator izohtalab o‘rinlar mavjud bo‘lib, bu ham shunday o‘rinlardan biridir. Yana shunday holatlardan birini quyidagi o‘rinda ko‘rish mumkin: “u 1467-yili Abu Said tomonidan Mashhadga surgun qilindi” [9.99]. Ushbu o‘rinda endi Alisher Navoiyning umuman boshqa shaharga, Xurosonning Mashhad shahriga surgun qilingani ayttilmoqda. Shoirning Mashhad shahrida tahsil olganligi ma’lum, lekin bu yerdagi faoliyatiga Abu Said Mirzo tomonidan surgun deya nisbat berish munozaralidir. Olim ushbu fikrlarini negadir izohlamagan. Sadriddin Ayniy va Oybek shoir va temuriyzoda hukmdor o‘rtasidagi ziddiyatlarni Husayn Boyqaro, shoirning tog‘alari va Badaxshon hokimi bilan bog‘laydi [10.284-285]. Mazkur o‘rinlar Sh.Sirojiddinov tomonidan tahlilga ham tortilgan [11.109]. Po‘latjon Qayyumiylar ushbu ma’lumotlarni taqdim etishda qaysi qo‘lyozma manbalarga murojaat etganligini tazkirada keltirmagan. Bu esa qo‘srimcha izlanishlarni talab etadi.

Shoir ijodiga chuqur hurmat bilan yondashgan olim o‘z tazkirasida eng katta o‘rinlardan birini aynan uning she’rlariga bag‘ishlagan. Chunonchi, Alisher Navoiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlardan so‘ng shoirning “Azal naqqoshi tarh aylarda gul bargi namudorin...” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azali, “Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimga ayt...” misrasi bilan boshlanuvchi 8 baytli g‘azali, “Ne bo‘ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang?..” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azali, “Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim...” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azali, “Ul pari ko‘yida men devonani band aylangiz...” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azali, “O‘rtanur el furqatingdin navha bunyod aylasam...” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azali, “Qaro ko‘zum kel-u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il...” misrasi bilan boshlanuvchi 8 baytli g‘azali keltirilgan.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **Adabiyotlar ro‘yxati**

### **(Использованная литература / References):**

1. Po‘latjon domulla Qayyumi. O‘zbek adabiyoti namuna daftari (qo‘lyozma). –Qo‘qon: Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Buyuk allomalar muzeyi №953. –594 s.
2. Po‘latjon domulla Qayyumi. Tazkirai Qayyumi (qo‘lyozma). –Toshkent: O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №734. –651 s.
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. I kitob. –Toshkent: Sharq, 2010. –512 b.
4. Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. Ҳаёти ва фаолияти. –Тошкент: Адабиёт, 2023. –Б.41.
5. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б.334.
6. Қаюмов А. Алишер Навоий (Улуг шоир ҳаёти ва ижоди тўғрисида лавҳалар). –Тошкент: Камалак, 1991. –Б.46.
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/qayta-qurish-davrimatbuoti/botirxon-valixojayevnavoij>
8. <http://n.ziyouz.com/books/tasavvuf/Ibrohim%20Haqqul.%20Navoiyga%20qaytish>
9. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. –С.77.
10. Садриддин Айний. Навоий. Куллиёт. –С.284-285.
11. Сирожиддинов Ш. Навоий ва Абу Саъид Мирзо муносабатлари. / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги: 30 жилдлик (Нашрга тайёрловчилар Давлатов О., Юсупова Д.; Алишер Навоий номидаги халқаро жамоат фонди. –Тошкент: TAMADDUN, 2021. – Б.109.